

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UO'K: 378.147.34

ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING BADIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI ANIQLASHGA QARATILGAN DIAGNOSTIK USULNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

IMPLEMENTATION OF A DIAGNOSTIC METHOD AIMED AT DETERMINING THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING ARTISTIC AND CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE ART-PEDAGOGICAL APPROACH

ВНЕДРЕНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО МЕТОДА, НАПРАВЛЕННОГО НА ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ АРТПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Madina Nasritdinova 

Farg'ona davlat universiteti Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada artpedagogik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari D.B.Elkonin va E.P.Torrens qarashlari asosida tahlil qilinadi. Elkonin tomonidan ilgari surilgan ijodiy faoliyatning psixologik-pedagogik mohiyati hamda Torrens tomonidan ishlab chiqilgan ijodkorlikni diagnostika qilish metodlari uyg'un holda ko'rib chiqiladi. Ushbu integratsiya artpedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishning samarali yo'nalishi sifatida asoslanadi. Maqolada artpedagogik metodologik modelning nazariy, diagnostik va integrativ bosqichlari ishlab chiqilib, eksperimental tadqiqot natijalari tahlil qilinadi. Natijalar artpedagogik yondashuv asosida o'tkazilgan ta'lim mashg'ulotlari talabalarning ijodiy tafakkuri, estetik sezgirliigi, badiiy faolligi va pedagogik kompetentligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, artpedagogika bo'lajak pedagoglarning ijodiy shaxs sifatida shakllanishida nazariya va amaliyot birligini ta'minlovchi samarali metodologik vosita sifatida qaratiladi.

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the art-pedagogical approach based on the ideas of D.B. Elkonin and E.P. Torrance. The psychological and pedagogical essence of creative activity proposed by Elkonin, as well as Torrance's methods for diagnosing creativity, are examined in an integrated manner. This integration is substantiated as an effective direction for developing the artistic and creative competence of future teachers within the framework of art-pedagogical education. The article presents the theoretical, diagnostic, and integrative stages of the art-pedagogical methodological model and analyzes the results of experimental research. The findings demonstrate that art-pedagogically oriented educational activities significantly enhance students' creative thinking, aesthetic sensitivity, artistic activity, and pedagogical competence. According to the research results, art pedagogy is considered an effective methodological tool that ensures the unity of theory and practice in the formation of future teachers as creative personalities.

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы арtpедагогического подхода на базе идей Д.Б. Эльконина и Э.П. Торренса. Рассматриваются психологико-педагогическая сущность творческой деятельности, разработанная Эльconiным, и методы диагностики креативности, предложенные Торренсом, в их взаимной интеграции. Такая интеграция обоснована как эффективное направление формирования художественно-творческой компетентности будущих педагогов в процессе арtpедагогического образования. В работе представлены теоретический, диагностический и интегративный этапы арtpедагогической методологической модели, а также проанализированы результаты экспериментального исследования. Полученные данные свидетельствуют о том, что занятия, построенные на арtpедагогическом подходе, способствуют существенному повышению уровня творческого мышления, эстетической чувствительности, художественной активности и педагогической компетентности студентов. В результате исследования арtpедагогика рассматривается как эффективное методологическое средство, обеспечивающее единство теории и практики в процессе становления будущего педагога как творческой личности.

Kalit so'zlar: artpedagogik yondashuv, badiiy-ijodiy kompetentlik, D.B.Elkonin, E.P.Torrens, ijodiy tafakkur, estetik sezgirlik, ijodiy diagnostika, integrativ model, bo'lajak pedagog, estetik rivojlanish, ijodiy salohiyat, pedagogik yondashuv, san'at ta'limi.

Key words: art-pedagogical approach, artistic and creative competence, D.B. Elkonin, E.P. Torrance, creative thinking, aesthetic sensitivity, creative diagnostics, integrative model, future teachers, aesthetic development, creative potential, pedagogical approach, art education.

Ключевые слова: артпедагогический подход, художественно-творческая компетентность, Д.Б.Эльконин, Э.П.Торренс, творческое мышление, эстетическая чувствительность, диагностика креативности, интегративная модель, будущие педагоги, эстетическое развитие, творческий потенциал, педагогический подход, художественное образование.

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimida insonning ijodiy tafakkuri va estetik sezgirligini rivojlantirish masalasi markaziy o'rin egallamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlari, shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasida innovatsion metodlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan[1;]. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va zamonaviy yondashuvlarni qo'llash O'zbekistonning strategik maqsadlari qatorida turadi. Zamonaviy pedagogik nazariyalar shaxsning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishni faqat bilim berish jarayoni bilan emas, balki san'at vositalari orqali estetik va emotsional tajriba hosil qilish bilan bog'laydi. Shu nuqtai nazardan, artpedagogika - ya'ni san'at orqali ta'lim berish konsepsiyasi - hozirgi davrda pedagogik innovatsiyaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Artpedagogik yondashuvning samaradorligi, avvalo, uning psixologik va pedagogik asoslariga bog'liq. Bu borada rus psixologi D.B.Elkonin va amerikalik olim E.P.Torrans qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Elkonin ijodni shaxs faoliyatining eng yuqori bosqichi sifatida talqin etib, uni tasavvur, assotsiativ tafakkur, fantaziya va hayolning birligi orqali tushuntiradi[2;47]. Uning fikricha, ijod bolalarning o'yin, musiqiy va badiiy faoliyatida shakllanadi hamda ta'lim jarayonida maxsus pedagogik ta'sir orqali rivojlantirilishi mumkin.

E.P. Torrants esa ijodiy tafakkurni o'lchash, diagnostika qilish va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan olim sifatida tanilgan. U yaratgan Torrance Tests of Creative Thinking (TTCT) testlari butun dunyo bo'yicha ijodkorlikni baholashda asosiy psixodiagnostik vosita sifatida qo'llanadi[3;160].

Elkonin va Torrants nazariyalarini uyg'unlashtirish artpedagogika uchun yangi ilmiy-metodologik yo'nalish yaratadi. Bir tomondan, Elkonin konsepsiyasi shaxsning tasavvur, hayol va emotsional sezgirligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Torrants yondashuvi ushbu jarayonni aniq diagnostika va baholash mezonlari orqali nazorat qilish imkonini beradi. Mazkur integratsiya artpedagogik ta'limda nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun puxta metodologik asos yaratadi.

Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi – D.B.Elkonin va E.P.Torrants qarashlarini artpedagogik yondashuv kontekstida tahlil qilish va ular asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u san'at vositalari orqali o'quv jarayonida ijodiy tafakkur, estetik sezgirlik va innovatsion pedagogik fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYASI

Artpedagogik yondashuv nuqtai nazaridan, Elkoninning bu qarashlari dolzarb ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, san'at vositalari orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida bo'lajak pedagog:

- tasavvur va hayolni mashq qiladi;
- assotsiativ tafakkurni rivojlantiradi;
- emotsional-estetik sezgirligini boyitadi;
- badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantiradi.

Demak, D.B.Elkoninning ijodga oid ta'limoti artpedagogikaning asosiy nazariy poydevorlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. U bo'lajak pedagoglarning estetik-tarbiyaviy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, ularning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni ishlab chiqishda mustahkam nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

PEDAGOGIKA

Ijod masalasi XX asr psixologiya va pedagogikasida alohida o'rin tutadi. Bu borada rus psixologi D.B.Elkonin va amerikalik olim E.P.Torrensning qarashlari ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ular ijodkorlikni turli nazariy paradigmalarda izohlashgan.

D.B.Elkonin ijodni shaxs faoliyatining eng yuqori bosqichi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, ijod - bu tasavvur, assotsiativlik, fantaziya va hayolparastlikning o'zaro bog'langan tizimli birligi bo'lib, insonning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini belgilaydi[2;320] Elkonin ta'lim jarayonida bolalarning o'yin, musiqiy va badiiy faoliyatini asosiy ijodiy tajriba maktabi sifatida ko'rsatgan. Shunday qilib, Elkonin ijodni pedagogik ta'sir orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lgan sifat sifatida izohlaydi.

E.P.Torrens esa ijodkorlikni amaliy psixologiya va ta'lim jarayonida o'lchash va rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Torrens ijodni inson tafakkurining moslashuvchanlik (flexibility), o'ziga xoslik (originality), oqimlilik (fluency) va takomillashtirish (elaboration) kabi ko'rsatkichlari orqali baholaydi. Unga ko'ra, ijod - bu nafaqat iste'dod, balki har qanday shaxsda rivojlantirilishi mumkin bo'lgan universal qobiliyatdir.

Artpedagogik yondashuv nuqtai nazaridan, Elkonin va Torrens qarashlari bir-birini to'ldiradi:

- Elkonin ijodning psixologik va pedagogik mohiyatini asoslab bergan bo'lsa,
- Torrens ijodkorlikni diagnostika qilish va rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan.

Shunday qilib, bu ikki olimning nazariyalari bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, artpedagogik ta'lim jarayonida san'at vositalari bilan ishlash Elkonin ko'rsatganidek shaxsning tasavvur va hayolini rivojlantirsa, Torrens metodlari orqali uning ijodiy tafakkur ko'rsatkichlarini amaliy jihatdan aniqlash va takomillashtirish imkoniyati tug'iladi.

Ijod fenomenini tadqiq etishda D.B.Elkonin va E.P.Torrens qarashlari bir-birini to'ldiruvchi nazariy-metodologik asos sifatida qaralishi mumkin. Elkonin ijodiy faoliyatning psixologik-pedagogik mohiyatini ochib bergan bo'lsa, Torrens uni empirik o'lchash va rivojlantirish usullari orqali ta'lim amaliyotiga tatbiq etgan.

Elkonin konsepsiyasida ijod shaxs faoliyatining yuqori shakli sifatida tasavvur, fantaziya va assotsiativ tafakkur birligida namoyon bo'ladi. Bu qarash artpedagogik ta'lim jarayonida san'at vositalari yordamida shaxsning estetik va emotsional tajribasini kengaytirish uchun nazariy asos yaratadi.

Torrens nazariyasida esa ijodkorlikning oqimlilik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va takomillashtirish kabi ko'rsatkichlari aniq metodik yondashuvlar orqali baholanadi. Bu esa artpedagogik faoliyatda o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasini aniqlash, shuningdek, pedagogik intervensiyalar samaradorligini tekshirish imkonini beradi.

Artpedagogik yondashuv kontekstida Elkonin va Torrens qarashlarining integratsiyasi quyidagilarni ta'minlaydi:


- Nazariy nuqtai nazardan, Elkonin ta'limotiga tayanib, san'at vositalari orqali shaxsning tasavvur va hayolini rivojlantirish.
- Amaliy nuqtai nazardan Torrens metodlari yordamida badiiy-ijodiy kompetentlikning rivojlanish dinamikasini o'lchash.
- Innovatsion nuqtai nazardan ikki yondashuv uyg'unligida artpedagogikaning yangi metodik imkoniyatlarini shakllantirish.

Shunday qilib, Elkonin va Torrens qarashlarini integratsiya qilish bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda nazariy va amaliy uyg'unlikni ta'minlaydi hamda artpedagogikaning samarali metodologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Artpedagogik yondashuvda bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish jarayoni ko'p bosqichli, integrativ modelga tayanadi. Ushbu modelning nazariy asosida D.B.Elkonin va E.P.Torrensning ijod haqidagi qarashlari yotadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishda artpedagogik yondashuv sezilarli darajada samarali hisoblanadi.



Nazorat va tajriba guruhlarini natijalarini taqqoslovchi diagramma

Dastlabki bosqichda nazorat va tajriba guruhlarini ko'rsatkichlari o'zaro deyarli bir xil bo'lib, o'rtacha 37–42 % diapazonda namoyon bo'ldi. Bu holat talabalarda ijodiy tafakkur, ijodiy faollik, estetik sezgirlik va pedagogik kompetentligining boshlang'ich darajada ekanini ko'rsatadi.

Yakuniy natijalarda esa sezilarli tafovut kuzatildi. Nazorat guruhida ko'rsatkichlar uncha katta bo'lmagan o'sishni (40–48 % oralig'ida) qayd etdi, bu esa an'anaviy ta'lim metodlarining ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda cheklanganligini isbotlaydi. Biroq tajriba guruhida natijalar keskin o'sdi: ijodiy tafakkur - 78 %, ijodiy faollik - 75 %, estetik sezgirlik - 73 %, pedagogik kompetentlik - 80 % gacha ko'tarildi. Ushbu o'sish artpedagogik yondashuv asosida o'tkazilgan mashg'ulotlarning samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi.

Demak, artpedagogik metodlar nafaqat talabalarining ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, balki ularning estetik sezgirlikni kuchaytiradi, badiiy-ijodiy faolligini oshiradi va zamonaviy pedagog sifatida innovatsion metodlarni qo'llashga tayyorligini ta'minlaydi. Shunday qilib, tadqiqot gipotezasi o'z tasdig'ini topdi, artpedagogik yondashuv bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

XULOSA

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, ijod fenomeni pedagogik-psixologik fanlarda turlicha talqin etiladi. D.B.Elkonin ijodni shaxsiy faoliyatning eng yuqori shakli sifatida izohlab, uni tasavvur, fantaziya, assotsiativlik va xayol kabi komponentlarning uyg'un tizimi deb qaraydi. E.P.Torrens esa ijodkorlikni diagnostika qilish mezonlarini ishlab chiqqan bo'lib, uning fluency, flexibility, originality, elaboration kabi mezonlari artpedagogik tadqiqotlar uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Artpedagogik yondashuv nazariy va amaliy jihatdan bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayoniga san'atning integratsiyasi orqali talabalarda ijodiy tafakkur, estetik sezgirlik, badiiy tasavvur va pedagogik innovatsion tayyorgarlikni shakllantiradi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan artpedagogik metodologik model (Elkonin nazariyasi + Torrens diagnostikasi asosida) ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini belgilab berdi. Mazkur modelda maqsad, mazmun, metod va natija bloklari bir-biriga uzviy bog'langan holda talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini berdi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida an'anaviy ta'lim metodlari asosida sezilarli o'sish kuzatilmadi (40–48 %). Biroq tajriba guruhida artpedagogik yondashuv asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarining ijodiy tafakkurida (78 %), ijodiy faolligida (75 %), estetik sezgirlikda (73 %) va pedagogik kompetentligida (80 %) keskin o'sishni ta'minladi.

PEDAGOGIKA

Tadqiqot natijalari asosida gipoteza tasdiqlandi: artpedagogik yondashuv bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Ta'lim jarayonida artpedagogik yondashuvni joriy etish - bo'lajak pedagoglarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlariga musiqa, tasviriy san'at, teatr va adabiy ijodiy topshiriqlarni integratsiya qilish tavsiya etiladi.

2. Ijodiy diagnostika metodlaridan foydalanish - E.P. Torrens testlari (fluency, flexibility, originality, elaboration mezonlari)ni muntazam ravishda qo'llash orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlari monitoringini olib borish zarur.

3. Interfaol metodlar asosida mashg'ulotlar tashkil etish - roliklar, sahnalashtirish, musiqiy improvizatsiyalar, vizual san'at elementlari yordamida o'quvchilarda estetik sezgirlik va ijodiy faollikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

4. Ijodiy muhit yaratish - auditoriya va dars jarayonida erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va badiiy obrazlarni yaratishga imkon beradigan sharoitni shakllantirish lozim.

5. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari - pedagoglarning artpedagogik kompetentligini oshirish maqsadida maxsus trening va seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

6. Tajriba almashish - artpedagogik yondashuv asosida yaratilgan samarali metod va amaliy mashg'ulotlarni boshqa oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilan almashish, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar yaratish tavsiya etiladi.

7. Raqamli texnologiyalardan foydalanish - onlayn platformalarda artpedagogik mashg'ulotlar uchun multimediali topshiriqlar va vizual-grafik materiallar ishlab chiqish talabalarni yanada faollashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Rasmiy hujjatlar portali. 2023.
2. Эльконин Д.Б. Психология игры. - Москва: Педагогика, 1978. - 304 с.
3. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. - Москва: Педагогика, 1989. - 560 с.
4. Torrens E.P. Torrens Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. - Lexington, MA: Personnel Press, 1966. - 160 p.
5. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - Москва: Просвещение, 1991. - 96 с.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1975. - 304 с.
7. Torrens E.P. Creativity: Just Wanting to Know. - Buffalo, NY: Bearly Limited, 1994. - 210 p.
8. Dewey, J.. Experience and Education. Macmillan. 1938
9. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall. 1986.
10. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978.